

RAQAMLI VALYUTA VA DAVLAT NAZORATI

Giyazova Nozima Bayazovna

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti, Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Suvonov Davlatjon Ramz o'g'li

Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti, 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: raqamli valyuta, markaziy bank, davlat nazorati, blokcheyn, kriptovalyuta, monitar siyosat, e-CNY, DCEP (Digital Currency Electronic Payment).

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli valyuta tushunchasi, uning iqtisodiyotga ta'siri va ayniqsa davlat nazorati ostidagi raqamli valyutaning afzalliklari hamda xavf-xatarlariga e'tibor qaratilgan. Turli davlatlar tajribasi misolida markaziy banklar tomonidan chiqarilayotgan raqamli valyutalarning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli valyutalar ustidan samarali nazoratni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2025 LWAB.

So'nggi yillarda moliyaviy texnologiyalar jadal rivojlanishi natijasida raqamli valyutalar global iqtisodiy muhitning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Xususan, kriptovalyutalarning tarqalishi, blokcheyn texnologiyasining takomillashuvi va raqamli to'lov tizimlarining kengayishi davlatlarni o'z raqamli valyutasini joriy etishga undamoqda. Shu bilan birga, davlatlar oldida asosiy masala sifatida ushbu valyutalar ustidan samarali nazoratni yo'lga qo'yish zarurati yuzaga chiqmoqda. Hozirgi kunga kelib raqamli valyutalar global moliyaviy tizimda sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, markaziy banklar tomonidan chiqarilayotgan raqamli valyutalar davlatlar uchun nazoratni saqlab qolish vositasi sifatida qaralayapti.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va valyutalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilab berdi. Hozirgi kunda Markaziy bank tomonidan xorijiy valyutalarning so'mga nisbatan kurslari belgilab boriladi.

Bugungi kunda raqamli valyutalarning iqtisodiyotda tutgan o'rni ortib borar ekan, ular ustidan samarali davlat nazoratini ta'minlash zarurati ham kun tartibiga chiqmoqda. Davlat nazorati bir necha asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi. Birinchidan, bu orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ladi, ya'ni valyuta kurslari, inflyatsiya va boshqa makroiqtisodiy indikatorlar ustidan nazorat o'rnatiladi. Ikkinchidan, soliq tushumlarini oshirish orqali davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' jalb etish imkoniyati paydo bo'ladi. Uchinchi muhim jihat – raqamli tranzaksiyalar orqali noqonuniy faoliyatlarni (masalan, pul yuvish, noqonuniy to'lovlar) aniqlash va ularga qarshi kurashish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, pul-kredit siyosatini yanada aniqroq yuritish va real vaqt rejimida iqtisodiy oqimlarni kuzatish imkoniyati mavjud bo'ladi.


Raqamli valyutalar ustidan davlat nazorati odatda bir nechta asosiy vositalar orqali amalga oshiriladi.

Bular qatoriga foydalanuvchilarni ro'yxatga olish va shaxsini aniqlash tizimi (KYC), tranzaksiyalarni real vaqt rejimida kuzatish tizimlari, maxsus qonunchilik bazasini yaratish va blokcheyn texnologiyasi asosida shaffoflikni ta'minlash kiradi.

Turli davlatlar bu borada turlicha tajribaga ega. Masalan, Xitoyda e-CNY yoki DCEP nomi bilan tanilgan raqamli valyuta allaqachon amaliyotga joriy etilgan bo'lib, u orqali naqd pullardan foydalanishni kamaytirish, tranzaksiyalarni markazlashtirilgan tarzda nazorat qilish va moliyaviy axborotlarni yig'ish yo'lga qo'yilgan. Shvetsiyada esa e-Krona loyihasi orqali raqamli to'lovlarni ommalashtirish va naqd puldan butunlay voz kechish maqsad qilinmoqda. Yaponiyada Digital Yen loyihasi sinovdan o'tkazilmoqda va u moliyaviy tizimni raqamlashtirishni nazarda tutadi. Nigeriyada eNaira loyihasi orqali davlat ijtimoiy to'lovlarni soddalashtirishga erishmoqda. Yevropa Markaziy banki esa raqamli yevro konsepsiyasini ishlab chiqmoqda va uni Yevrozonadagi barcha a'zolar uchun yagona raqamli to'lov vositasi sifatida joriy etmoqchi.

Xalqaro moliyaviy institutlar, xususan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Jahon banki va Bank for International Settlements (BIS) aytishiga qaraganda, 2025-yil boshlariga kelib, 130 dan ortiq davlat raqamli valyutalarni o'rganmoqda va ularning 40 dan ortig'i allaqachon sinov bosqichiga o'tgan. Masalan, Xitoyda DCEP tizimi orqali 260 milliondan¹ ortiq foydalanuvchi ishtirok etmoqda va tranzaksiyalar hajmi 14 trillion yuandan oshgan. Shvetsiyada esa 2024-yil oxiriga qadar barcha davlat to'lovlari raqamli shaklga o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi doirasida raqamli valyuta konsepsiyasi ustida izlanishlar olib bormoqda. Markaziy bank tomonidan raqamli so'm loyihasi yuzasidan dastlabki tadqiqotlar o'tkazilgan. Raqamli valyuta joriy qilinishi orqali O'zbekistonda fiskal intizomni kuchaytirish, byudjet tushumlarini oshirish, ijtimoiy to'lovlarni avtomatlashtirish va umuman olganda, pul muomalasining ochiqligi ta'minlanishi mumkin. Biroq bu borada texnologik infratuzilma, xavfsizlik tizimlari va normativ-huquqiy asoslar hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli, davlat nazoratini raqamli valyuta tizimiga to'laqonli joriy qilish uchun huquqiy, texnik va iqtisodiy yondashuvlarni kompleks tarzda ishlab chiqish zarur.



1-rasm. Markaziy banklar raqamli valyutasi bo'yicha loyihalar soni (2016–2024)²

Grafikdan ko'rinadiki, so'nggi 8 yil ichida markaziy banklar raqamli valyuta bo'yicha olib borayotgan loyihalar soni 20 barobarga oshgan. Bu raqamli iqtisodiyotga global e'tibor kuchayganini anglatadi. Ayniqsa pandemiyadan so'ng bu jarayon tezlashgan.

Xitoy: **DCEP (Digital Currency Electronic Payment)** loyihasi orqali raqamli yuan joriy etilgan.

¹ Central Bank Digital Currency Tracker - Atlantic Council

² <https://www.bis.org/publ/othp81.htm> sayti

Ushbu valyuta davlat tomonidan to'liq nazorat qilinadi va barcha tranzaksiyalar real vaqt rejimida kuzatiladi. Yevro hududi: **Evro-raqamli valyuta** loyihasi 2026 yilgacha bosqichma-bosqich ishga tushirilmoqda. Maqsad – Yevrozonada raqamli to'lovlarni xavfsiz va tez amalga oshirish, shu bilan birga moliyaviy maxfiylikni saqlash. AQSh: **Digital Dollar** konsepsiyasi hali tajriba bosqichida. AQSh moliya tizimining hajmi va murakkabligi sababli ehtiyotkorlik bilan yondashmoqda.


Amaliy va statistik tahlil quyidagi jadvalda ayrim davlatlarning markaziy bank tomonidan chiqarilgan raqamli valyutalari (CBDC) keltirilgan:

1-jadval. Turli Davlatlarning chiqargan valyutalari³

Davlat	CBDC	Joriy etilgan yili	Tajriba bosqichi
Xitoy	e-CNY	2020	Ishga tushgan
Yevropa Ittifoqi	Raqamli Yevro	2024	Rivojlanish bosqichi
AQSh	Raqamli Dollar	2025	Tajriba bosqichi
Rossiya	Raqamli Rubl	2023	Sinov bosqichi
O'zbekiston	Hali yo'q	-	Tadqiqot bosqichi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xitoy allaqachon o'zining e-CNY valyutasini joriy etgan bo'lsa, Yevropa va AQSh ushbu yo'nalishda tadqiqot va sinov bosqichida. O'zbekiston hozircha raqamli valyutalar bo'yicha tadqiqot olib bormoqda. Yuqoridagi jadvalda dunyoning turli mamlakatlarida raqamli valyutalarning joriy etilishi, ularning hozirgi tajriba bosqichi va ishga tushgan yili keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, raqamli valyutalarni joriy qilish jarayoni har bir davlatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning iqtisodiy modeli, texnologik infratuzilmasi va monitar siyosati bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston esa hali raqamli valyutani amaliyotga joriy etmagan bo'lsa-da, ushbu sohada izlanishlar olib bormoqda. “Raqamli so'm” konsepsiyasi tadqiqot bosqichida bo'lib, davlat tomonidan Markaziy bank orqali imkoniyatlar o'rganilmoqda. Mamlakatda raqamli valyutani joriy qilish orqali fiskal intizomni kuchaytirish, noqonuniy to'lovlar oqimini kamaytirish va iqtisodiy shaffoflikni ta'minlash kutilmoqda. Umuman olganda, jadvalda keltirilgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli valyutani joriy qilish faqat texnologik yechim emas, balki bu chuqur iqtisodiy, huquqiy va siyosiy yondashuvlarni talab qiladigan strategik jarayondir. Har bir davlat o'zining moliyaviy tizimi, infratuzilmasi va siyosiy vaziyatiga moslab bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

³ Manba: internet ma'lumotlaridan foydalanilgan holda muallif tomonidan tayyorlandi.



2-rasm. Raqamli valyuta ustidan nazorat elementlari (foizlarda)⁴

Nazorat tizimida eng katta e'tibor tranzaksiyalar ustidan nazoratga qaratilgan. Shaxsni tasdiqlash va xavfsizlik masalalari ham muhim o'rin tutadi. Bu raqamlar markaziy banklarning asosiy xavotiri – noqonuniy moliyaviy faoliyatlar ekanini ko'rsatadi. Diagrammadan ko'rinib turibdiki, nazoratning eng katta qismi, ya'ni 35 foizi tranzaksiyalarni kuzatishga qaratilgan. Bu orqali davlatlar raqamli valyutalar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalarni nazorat qilish va noqonuniy harakatlarning oldini olishga harakat qilmoqda. Shuningdek, 25 foiz ulush shaxsni autentifikatsiya qilishga tegishli bo'lib, bu raqamli valyuta foydalanuvchilarining ishonchli va xavfsiz identifikatsiyasini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Limitlar va cheklovlar, hamda kiberxavfsizlik elementlari har biri 20 foizdan ulush olgan. Bu esa davlat nazorati faqat moliyaviy nazorat bilan cheklanib qolmasdan, texnik va xavfsizlik choralari bilan ham to'ldirilishini bildiradi. Umuman olganda, rasmda keltirilgan elementlar raqamli valyutalarning barqaror va qonuniy muomalada bo'lishi uchun davlatlar qanday yondashuvlarni tanlayotganini aniq namoyon etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Raqamli valyutalar zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ularning iqtisodiy tizimda muvaffaqiyatli amal qilishi esa davlat nazoratining samarali yo'lga qo'yilganligiga bevosita bog'liqdir. Shu boisdan raqamli valyuta ustidan huquqiy, texnologik va institutsional nazoratni kuchaytirish global miqyosda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmasdan, o'zining raqamli valyutasi va unga oid siyosatni shakllantirishi muhimdir.

Raqamli valyutalar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar ochishi bilan birga, qator chaqiriqlarni ham yuzaga keltiradi. Davlat tomonidan puxta o'ylangan siyosat va regulatsiya mexanizmlari orqali raqamli valyutalarning iqtisodiyotga ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish mumkin. Raqamli valyutalar zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismiga aylanmoqda. Ular bilan bog'liq imkoniyatlar katta bo'lishiga qaramay, ularning barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishi faqat

⁴ <https://www.elibrary.imf.org/view/journals/007/2024/052/article-A001-en.xml>

davlat nazorati va samarali tartibga solish orqali amalga oshadi. Shu sababli, raqamli valyutaning rivojlanishida davlatning faolligi va strategik yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloev, A. J. (2023). THE ROLE AND IMPORTANCE OF STRATEGIC PLANNING IN MARKETING.
2. Abdullayeva, H. N., & Sardor, M. (2024). RAQAMLASHTIRISH-MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 3(27), 113-121.
3. Abdullayeva, H. (2024). KORXONA FAOLIYATIDA INNOVATSION MARKETINGDAN FOYDALANISH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 49(49).
4. Axrorovna, B. M. (2022). The Importance of Digitizing the Tax System. *European Journal Of Business Startups And Open Society*, 2(11), 1-5.
5. Giyazova, N.B. (2024). INCREASING THE EFFICIENCY OF WASTE RECYCLING IN THE ECONOMY OF OUR COUNTRY. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 455-461.
6. Giyazova, N.B., & Sh.B.S. (2024). ZAMONAVIY RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI MUAMMOLAR VA CHORA-TADBIRLAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 482-489.
7. Shukhratovna, U. M., & Bayazovna, G. N. (2025). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF MOBILE INTERNET. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(49), 250-256.
8. Таирова, М. М., & Зойитов, Д. (2024). ЗНАЧЕНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 42), 371-376.
9. Таирова, М. М., & Рахматуллаева, Ф. М. (2015). Условия формирования инновационной экономики. *Наука 21 века: вопросы, гипотезы, ответы*, (1), 115-118.
10. Hakimovna, U. M., & Muhammedrisaevna, T. M. S. (2022). The role of banking and accounting in the development of small business and entrepreneurship. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 11, 136-143.
11. Sayfullayeva, M. (2023). Establishment Of Agritourism Clusters In Uzbekistan Based On The Principles Of Sustainable Tourism. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 35(35).
12. Raxmatullayeva, F. M. (2024). MINTAQALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. *Indexing*, 1(1).
13. Raxmatullayeva, F. M., & Shaxzod, J. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RESURLAR ISTE'MOLIGA TA'SIRI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 496-502.
14. Mubinovna, R. F. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOTDA PLATFORMALAR AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 3(30), 220-225.
15. Rasul o'g'li, K. U., & Bayazovna, G. N. (2025). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ROLI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 4(37), 342-348.

16. Aliyor o'g'li, X. S., & Bayazovna, G. N. (2025). KIBERXAVFSIZLIK–RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHINING MUHIM OMILI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 113-117.
17. Shuxratovich, T. B., & Bayazovna, G. N. (2025). INSON KAPITALINING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI O 'RNI. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024*, 4(38), 187-191.
18. Shokirjon o'g'li, J. S., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA EKOLOGIK BARQARORLIK: BLOKCHEYNNING YASHIL IQTISODIYOTDAGI ROLI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(50), 418-425.
19. Ramz o'g'li, S. D., & Bayazovna, G. N. (2025). RAQAMLI VALYUTA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(31), 130-135.
20. Rustam o'g'li, R. J., & Bayazovna, G. N. (2025). MOBIL TO 'LOVLAR VA ULARNING IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 3(30), 193-197.
21. Giyazova, N. B., & Azimxon ogli, Q. S. (2024). GLOBALLASHUV SHAROITIDA ENERGIYA RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 159-163.
22. Giyazova, N. B., & Dildora, I. (2024). YASHIL IQTISODIYOT VA UNING KELAJAKDAGI ISTIQBOLLARI. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 3(29), 213-217.
23. Bayazovna, G. N., & Ayubovich, X. A. L. (2024). THE CONCEPT OF FINANCE AND THE STAGES OF ITS FORMATION. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (7), 673-679.
24. Bayazovna, G. N. (2024). GEOMARKETINGNING RESTORAN BIZNESIGA TADBIQ ETILISHINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, 3(34), 484-490.
25. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. *Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz)*, 27, 27.
26. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 47-50.
27. Islamovna, X. S. (2024). OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORI GEOGRAFIYASINI KENGAYTIRISHDA AXBOROT TIZIMLARIDAN VA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 493-500.
28. Islamovna, X. S. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(03), 390-396.
29. Islamovna, X. S., & Karimbek, K. (2024). IQTISODIYOTDA ZAMONAVIY MENEJER BOSHQARUVI. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 361-365.
30. Наврўззода, З. Б., & Хасанова, С. И. (2022). АҲОЛИНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БАНДЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ОМИЛИ СИФАТИДА. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 769-773.

31. Jamshedovna Q. H. GREEN ECONOMY AS A FACTOR OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2024. – T. 2. – №. 5. – C. 785-794.
32. Otabek o'g'li O. M., Jamshedovna Q. H. RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOYDALANUVCHI MA'LUMOTLARINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR //INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024. – 2025. – T. 4. – №. 38. – C. 167-174.
33. Jamshedovna Q. H., Lutfullayevna X. L. BUSINESS MANAGEMENT: WAYS TO ACHIEVE DOMINANCE IN THE MARKET //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2025. – T. 6. – №. 49. – C. 247-249.
34. Khurramov O. K., Kasimova H. J. The main advantages of internet marketing and differences from traditional marketing //Мировая наука. – 2019. – №. 4 (25). – C. 65-68.
35. Jamshedovna Q. H., Askarovich S. M. Effective Development of the Economy on the Basis of "Green Economy". – 2023.